



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024-yil
yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-oktabrdagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-noyabr)

Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi, % da

75,9



Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi –
8 726,9
ming so'm




Xizmatlar
sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi, % da

68,5




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-dekabr holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-noyabr)




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va tashkilotlar

(1-dekabr holatiga ko'ra)



Soni, birlikda




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-noyabr)




Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-noyabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi
(2024-yil yanvar-noyabr)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023-yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-noyabr)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Surxondaryo viloyati ¹⁾	25 329,9	100,0	110,6
Termiz sh.	4 645,3	18,3	109,4
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	705,5	2,8	111,4
Angor	689,8	2,7	110,5
Bandixon	376,6	1,5	111,7
Boysun	522,8	2,1	112,7
Muzrabot	747,6	3,0	111,0
Denov	2 146,0	8,5	111,8
Jarqo'rg'on	942,0	3,7	112,5
Qumqo'rg'on	998,6	3,9	109,2
Qiziriq	612,2	2,4	110,4
Sariosiyo	973,8	3,8	109,6
Termiz	804,7	3,2	112,3
Uzun	683,8	2,7	110,2
Sherobod	899,7	3,6	112,7
Sho'rchi	879,4	3,5	111,8

¹ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-noyabr)




Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ¹⁾ (2024-yil yanvar-noyabr)

Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Termiz sh	22 793,6	106,3
Termiz	9 400,9	109,2
Denov	5 061,2	109,0
Qiziriq	4 893,3	107,9
Muzrabot	4 829,9	108,7
Angor	4 757,2	108,0
Bandixon	4 488,7	108,6
Sariosiyo	4 239,2	107,0
Sherobod	4 237,7	110,3
Boysun	4 166,5	110,3
Jarqo'rg'on	3 918,3	109,7
Qumqo'rg'on	3 873,8	106,5
Sho'rchi	3 811,8	109,0
Oltinsoy	3 628,9	108,6
Uzun	3 608,4	107,5

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-noyabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **75,9** foizni, shu jumladan, **41,0** foizini kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik ¹⁾ (2024-yil yanvar-noyabr)

Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi %da
Termiz sh	2 296,9	+22,7
Denov	1 354,3	+14,6
Jarqo'rg'on	712,9	+15,0
Sherobod	682,4	+13,1
Sariosiyo	672,0	+12,0
Sho'rchi	654,7	+13,2
Qumqo'rg'on	642,6	+10,9
Muzrabot	611,6	+12,4
Angor	536,2	+12,2
Oltinsoy	566,9	+13,5
Termiz	533,9	+13,3
Uzun	521,5	+12,1
Qiziriq	515,0	+12,0
Boysun	427,0	+13,7
Bandixon	319,9	+12,9

■ Hajmi, mlrd so'mda ○ O'sishi %da

¹ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-noyabr)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	25 329,9	100,0	110,6
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	992,3	3,9	116,1
Moliyaviy xizmatlar	3 366,3	13,3	104,9
Transport xizmatlari	2 876,0	11,3	110,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 556,7	10,1	111,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	7 290,6	28,8	109,6
Savdo xizmatlari	6 623,9	25,9	112,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	466,0	1,8	110,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	870,4	3,4	113,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	353,4	1,4	107,6
Ijara xizmatlari	325,0	1,3	105,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	565,6	2,2	111,4
Shaxsiy xizmatlar	603,0	2,4	110,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	237,8	0,9	92,7
Boshqa xizmatlar	759,6	3,0	112,0

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-noyabr)




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024-yil yanvar-noyabr mlrd so'mda)

Termiz sh	1 560,1
Denov	477,5
Qumqo'rg'on	267,4
Sariosiyo	203,6
Jarqo'rg'on	127,5
Sho'rchi	114,5
Sherobod	112,9
Uzun	91,1
Muzrabot	77,7
Termiz	71,1
Angor	64,8
Oltinsoy	63,3
Qiziriq	50,7
Boysun	50,2
Bandixon	33,9

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024-yil yanvar-noyabr)

Yordamchi moliyaviy faoliyat




Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024-yil yanvar-noyabrda 95,3** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **46,3** foizni yoki **1 560,1** mlrd so'mni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **88,9** foiz.

Termiz shahrida transport xizmatlari hajmi **477,5** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **107,1** foizni tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾



Hududlar kesimida transport xizmatlari ¹⁾

(2024-yil yanvar-noyabr)


Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi %da
Termiz sh	477,5	+7,1
Denov	288,9	+6,7
Jarqo'rg'on	206,3	+16,6
Termiz	195,7	+1,3
Sho'rchi	168,3	+19,2
Sariosiyo	157,6	+10,7
Qumqo'rg'on	153,5	+10,3
Sherobod	152,6	+11,5
Muzrabot	137,5	+16,9
Angor	128,6	+14,6
Uzun	120,6	+11,0
Qiziriq	118,2	+11,8
Oltinsoy	114,1	+12,6
Boysun	104,6	+12,7
Bandixon	78,2	+11,3

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ● O'sishi %da

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-noyabr) ¹⁾

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 556,7** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **10,1 %** ni tashkil etdi.



Termiz sh	434,9	+14,6
Oltinsoy	270,1	+12,9
Angor	150,0	+8,7
Bandixon	148,9	+12,3
Boysun	147,3	+11,7
Muzrabot	145,1	+9,9
Denov	133,8	+11,2
Jarqo'rg'on	117,6	+11,4
Qumqo'rg'on	115,6	+6,2
Qiziriq	114,8	+13,6
Sariosiyo	114,3	+12,0
Termiz	112,8	+13,4
Uzun	104,1	+5,0
Sherobod	102,5	+13,3
Sho'rchi	71,3	+4,7

Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2024-yil yanvar-noyabr)



2024-yil yanvar-noyabr oylarida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi **85,1** foizga yetdi.


Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismi taksi xizmatlariga to'g'ri keladi – **60,0 %**.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-noyabr)

2024-yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining **82,7** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024-yil yanvar-noyabr)



Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi %da
Termiz sh	1146,2	+24,3
Denov	796,5	+14,3
Muzrabot	377,8	+10,8
Sherobod	369,9	+18,4
Sariosiyo	356,1	+10,2
Jarqo'rg'on	354,1	+13,1
Sho'rchi	347,2	+14,1
Qumqo'rg'on	329,7	+7,7
Angor	300,3	+11,9
Oltinsoy	296,0	+11,9
Qiziriq	286,0	+11,9
Termiz	283,4	+14,6
Uzun	277,4	+11,8
Boysun	206,8	+13,9
Bandixon	172,3	+13,4

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ● O'sishi %da


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-noyabr)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar-noyabr** oylaridagi ulushi **86,4 %** ni tashkil etdi. **Termiz sh**



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024-yil yanvar-noyabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi %da




Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami (2024-yil yanvar-noyabr)

Muqobil to'plam ko'rsatkichlarining nomi	Hajmi, <i>mld so'mda</i>	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
Jami	992,3	100,0
shu jumladan:		
AKT xizmatlari sektori	901,5	90,9
shu jumladan:		
Telekommunikatsiya xizmatlari	743,6	82,5
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	157,9	17,5
Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori	90,8	9,1
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari	42,4	46,7
Kino-videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	4,9	5,4
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	0,0	0,0
Boshqa axborot xizmatlari	43,5	47,9

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-noyabr)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024-yil yanvar-noyabr** oylaridagi ulushi **81,5** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar ¹⁾

(2024-yil yanvar-noyabr, mlrd so'mda)

Termiz sh	374,5
Denov	158,0
Termiz	55,0
Sherobod	38,0
Sho'rchi	34,8
Jarqo'rg'on	22,8
Sariosiyo	18,8
Qumqo'rg'on	16,5
Uzun	15,7
Qiziriq	13,5
Angor	13,4
Oltinsoy	12,2
Boysun	10,2
Muzrabot	8,9
Bandixon	2,1

Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Termiz shahriga to'g'ri keladi. **2020-yilning yanvar-noyabr** oylariga nisbatan mazkur hududda ushbu xizmat turi hajmi **145,4** mlrd so'mga oshdi va ko'rib chiqilayotgan davrda **374,5** mlrd so'mga yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **47,1** foiziga yetdi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024-yil yanvar-noyabr** oylaridagi ulushi **46,9 %** ni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **35,5 %** ni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **17,6 %** ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-noyabr)



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ¹⁾ (2024-yil yanvar-noyabr)

Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi % da
Termiz sh	139,7	+7,5
Denov	22,8	+12,7
Boysun	16,5	+8,6
Sherobod	15,5	+10,3
Termiz	11,8	+11,2
Jarqo'rg'on	10,5	+9,0
Qumqo'rg'on	8,4	+10,6
Sho'rchi	7,8	+11,5
Sariosiyo	4,7	+11,5
Uzun	4,3	+11,3
Angor	4,1	+10,9
Qiziriq	3,6	+10,7
Oltinsoy	3,3	+11,7
Muzrabot	2,8	+11,3
Bandixon	1,5	+13,3

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda O'sishi % da


Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar-noyabr)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **96,4** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar ¹⁾ (2024-yil yanvar-noyabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda


○ O'sishi %da

2024-yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **28,8 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **87,7** foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-noyabr)




Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ¹⁾ (2024-yil yanvar-noyabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlangan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ● O'sishi %da

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-noyabr)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari ¹⁾ (2024-yil yanvar-noyabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda + O'sishi %da

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-noyabr)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **32,3** foizini tashkil etadi.


Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari ¹⁾ (2024-yil yanvar-noyabr)

Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi %da
Termiz sh	68,1	+2,9
Denov	45,0	+9,9
Qumqo'rg'on	27,2	+11,5
Sariosiyo	27,1	+9,9
Jarqo'rg'on	26,5	+12,1
Sherobod	25,7	+10,3
Sho'rchi	25,5	+11,7
Angor	23,7	+11,6
Uzun	22,6	+10,5
Oltinsoy	22,2	+11,3
Muzrabot	20,8	+10,9
Qiziriq	19,5	+12,0
Termiz	17,9	+13,2
Boysun	17,8	+12,5
Bandixon	15,1	+12,9

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ◆ O'sishi %da

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ¹⁾ (2024-yil yanvar-noyabr, mlrd so'mda)



2020-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **61,5** mlrd so'mga oshib, **227,8** mlrd so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **47,8** foizni tashkil etdi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalar operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 76-225-65-91